

AHOLI YASHASH HUDUDLARIDA AHOLI JOYLASHUVI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR MASALALARI

Pardayev Abbos

Qarshi davlat universiteti o`qituvchisi

Pardaev Abbos

Teacher of Karshi State University

Aytish joizki, yashash hududlarida aholi joylashuvi va ekologik muammolar XXI asrning eng dolzarb muammolaridan bo`lib qolmoqda. Insoniyat, hayvonot va nabodot dunyosining kundalik hayoti bevosita atrof-muhit bilan o`zaro munosabatiga bogliq. Yashab turgan er sayyoramiz bir ko`rishda bir necha milliard yillardan beri o`zgarishsiz mavjud bo`lib, uning o`lchamlari ham cheksizdek, har xil mintaqalar alohida-alohida joylashgan va ularning bir biriga aloqasi go`yoki yoqdek tuyuladi. Aslida esa hammasi butunlay boshqacha.

Yuqoridagi masalalarni shaharsozlikda yani aholi yashash hududlari nuqtai nazaridan oladigan bo`lsak, bugungi kunda bu masala haqiqatda dolzarbligini kuzatish qiyin emas.

Avvalambor, joylashuvning mahalliy tizimi bu - aholi yashash hududini funksional hududlash vazifalari hisoblanadi. Aholi yashash hududini joylashtirish tizimining tuzilmaviy elementi sifatida qabul qilinishi, avvalgi ananaviy yondoshishdan farqli o`laroq, uning hududi funksional ravishda hududlashtirilishini belgilab beradi. Aholi hududi hamda joylashtirish tizimini rejaviy tashkil etilishining uslubi sifatida ko`riladigan funksional hududlashtirishning imkoniyatlari ayrim hududlarning o`zaro tasiri, masalan, bu hududlardagi ayrim elementlarning bir-biriga qo`shilib ketishi va integrasiyasi kabi shaharsozlik yaxlitligiga xos bo`lgan tendensiyalar kuchayishini hisobga olishi zarur. Qurilish obektlarining nafaqat funksional, balki hajmiy-fazoviy jihatlarini hisobga olish zarurati funksional bir turga mansub hududlarni belgilashdek nisbatan oddiy prinsiplardan o`zgaruvchan, shaharsozlik tuzilmalari shakllanishining barcha jihatlarini o`z tarkibida qamrab olgan prinsiplarga o`tish maqsadga muvofiq ekanligini taqozo etadi. Aytib o`tilgan prinsipni amalga oshirish uchun eng qulay sharoitlar yangi va etarlicha darajada istiqbolli hisoblangan aholi hududlarida mavjud, ulardagi tuzilmani aholi istiqomat qiladigan va sanoat hududlarini ajratgan holda shakllantirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Boshqa funksional turdagi shakllanib bo`lgan aholi hududlarida, ayniqsa, ko`p funksional shahar tashkil etuvchi bazasi va hududiy jihatdan murakkab aloqalar mavjud bo`lgan sharoitlarda esa funksiyalarning qat'iy birlashtirilishi funksional nuqtai nazarda o`zini oqlamaydi.



Mavjud aholi hududlaridagi barcha aholi yashaydigan hudud, uning markaziy qismi, tashqi hududi ko'p funksional tuzilmalar sifatida shakllantiriladi. Aksariyat kichik aholi hududlari tuzilmasi o'rganilganida, aholi istiqomat qiladigan va ishlab chiqarish hududlarining ajratilishi aniq belgilanmaganligi ko'zga tashlanadi. Undan tashqari, qayta qurish tajribasini tadqiq etish jarayonida aniqlandiki, bu kabi hududlashda katta qiyinchiliklar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'ladi.


Aholi hududining funksional jihatdan qat'iy hududlanashida har bir hudud o'zining hajmiy-fazoviy xususiyatlari bo'yicha bir-biridan ancha farqlanishi kuzatiladi. Bu aholi hududlaridagi korxonalar qavatlilik bilan ham, hududdan foydalanish intensivligi bilan ham turlicha bo'ladi. Bu erda ko'proq kam qavatli binolarda joylashgan kommunal xizmat, qishloq xo'jalik yonilishlaridagi va kamroq agrar-sanoat korxonalari qurilgan. Transport obektlari bilan band bo'lgan hududlar ham jamoat-transport kompleksi, avtokorxonalar tarkibidagi uchastkalarga bo'linadi. Keltirib o'tilgan holatlarning barchasi hududni rejali tashkil etish metodi sifatida qabul qilingan funksional hududlashning keng imkoniyatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Biroq, bunday yondoshuv tuzilmaviy-rejali tashkillashtirishning faqat funksional jihatlarini hisobga olgan holda estetik xususiyatlarni deyarli chetlab o'tadi.

Hududni funksional tashkil etishda ayrim hududlar o'rtasidagi istalgan shaharsozlik yaxlitlikka xos bo'lgan o'zaro tasir (masalan, hududlar elementlarining qo'shilishi va integratsiyasi) kuchayishini ham hisobga olish zarur. Imoratlar qurilishining nafaqat funksional, balki hajmiy-fazoviy tavsiflarini hisobga olish zarurati funksional jihatdan bir xil bo'lgan hududlarni nisbatan oddiy bo'lgan ajratish prinsipidan moslashuvchanroq, shaharsozlik tuzilmalari shakllanishining barcha xususiyatlarini to'laroq qamrab oluvchi kompleks hududlashtirish prinsipiga o'tish lozimligini shartlab beradi. Bu prinsip qurilish zichligi va qavatlilikini hisobga oluvchi funksional va hajmiy-fazoviy xarakteristikalar jamlanmasiga asoslanadi.

Aholi hududlari – joylashuv tizimi elementlari hududining hududlanishidagi etiborga molik xususiyatlarni aniqlashda, kattaligi turlicha bo'lgan aholi hududlarida urbanizatsiya darajasi turlicha bo'lgan hududlarning o'zaro bir-birlarini to'ldira olishdek xususiyatlarini va barcha aholi hududlari uchun yagona kelishilgan hududlash tizimini qo'llash zarurligini takidlash lozim. Masalan, faoliyat va ijtimoiy muloqotning keng qamrovli bo'lishi faqat urbanizatsiya darajasi yuqori muhit taminlay oladi. Bunday muhit, o'z navbatida, joylashuvning viloyat tizimidagi yirik shahar-markazda shakllanishi mumkin. Shu bilan birga, yirik shaharlarda urbanizatsiyalashmagan yoki sust urbanizatsiyalashgan hududlarni shakllantirishning imkoni yoq.

Aholi yashash hududlaridagi ekologik muammolarni bartaraf etish uchun avvalo quyidagi hududda shaharsozlik ekologik tadbirlarini joriy masalalarga etibor qaratish





zarur. Yani tabiiy karkas yani suv oqimlari va ular bo`ylab ko`kalamzorlashtirish, daraxtzorlar saqlanishi va rivojlanishi, hududning rejaviy tashkiloti sxemalari va loyihalarini ishlab chiqishda suv muhofaza hududlari, shuningdek kurort zahiralarning qat'iy tartibda sanitariya hududlari va er osti suvlari konlari hududlaridan funksional foydalanish talablarini taminlash, eng yirik va yirik shaharlar atrofida yashil hududlarni barpo etish, amaldagi ekologik va shaharsozlik qonunchiligida zid holda joylashgan ishlab chiqarish turlari ixtisosligini o`zgartirish yo boshqa joyga ko`chirish, yo`l transport tizimini rivojlantirish va qayta qurish kabi tadbirlardir.

Undan tashqari aholi yashash hududlarini ekologik jihatdan yani atmosfera havosini ifloslantirish manbalari bo`lgan, shuningdek yuqori yon`in xavfi mavjud bo`lgan ishlab chiqarish korxonlariga nisbatan ko`proq shamol esuvchi taraf uchun shamolga ro`para tarafdin joylashtirish kerak. Atmosfera havosining alohida tozaligini talab etuvchi korxonalarni atmosfera havosining ifloslanishi manbalari bo`lgan korxonalariga nisbatan ustun shamol yo`nalishida joylashtirish kerak emas.

Umuman aholi yashash hududlarini joylashtirish va ekologik muammolarini bartaraf etishda tegishli qonunlar va ShNQ va QMQ lar asosida masalalarni ko`rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoldarov Xatamjon. "O`zbekiston hududidagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari" 2023-yil

